



## BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Egamqulova Mohinur To'lqin qizi*

*Guliston Davlat Universiteti*

*Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

*E-mail:mohinuregamqulova22@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktab ta'limidagi boshlang'ich sinf o'quvchilariga sifatli ta'lim berish va o'qitishda multimedia vositalari va texnologiyalaridan foydalanish va uning ta'limdagi samarasi haqida ko'plab fikrlar yuritilgan. O'qituvchilar, videolar, taqdimotlar, interaktiv sovg'alar va boshqa vositalar qidirish bilan o'zlarini yoki yosh o'quvchilarini mashq qilishlari kerak bo'lgan mamlakatlaricha o'tilayotgan qaydlarga, masalarni stillari va ko'rsatuвшись qamrab olishi, multimediali vositalar yordamida talabalarni o'qitishning afzallikkari, mutimedianing texnik vositalari, axborot texnologiyalarining rivojlanishining ta'lim jarayoniga ta'siri va natijaviyligiga doir fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** multimedia, multimediali ta'lim, multimediali ta'lim dasturlari, matn, tovush, grafik va rasmlar, dars, slayd, o'quv materiali, zamonaviy pedagog, kommunikativlik.

**Abstract.** In this article, there are many ideas about the use of multimedia tools and technologies in providing quality education and training to elementary school students and its effectiveness in education. Teachers need to practice themselves or their young students by searching for videos, presentations, interactive gifts and other tools, covering the country-by-country notes, discussion styles and presentations, the advantages of teaching students using multimedia tools, multimedia technical tools, the development of information technology. opinions on the influence and effectiveness of the lim process are discussed.

**Key words:** multimedia, multimedia education, multimedia educational programs, text, sound, graphics and pictures, lesson, slide, educational material, modern pedagogue, communicative

**Аннотация:** В данной статье изложено множество идей по поводу использования мультимедийных средств и технологий в обеспечении качественного образования и обучения учащихся начальной школы и их эффективности в образовании. Учителям необходимо практиковать себя или



своих юных учеников, ища видео, презентации, интерактивные подарки и другие инструменты, охватывая заметки по странам, стили обсуждения и презентации, преимущества обучения учащихся с использованием мультимедийных инструментов, мультимедийных технических инструментов, развитие информационных технологий, обсуждаются мнения о влиянии и эффективности процесса лим.

**Ключевые слова:** мультимедиа, мультимедийное образование, мультимедийные образовательные программы, текст, звук, графика и картинки, урок, слайд, учебный материал, современный педагог, коммуникатив.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan zamonda boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida kompyuter va turli zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda Uchinchi Renessans vakillarini ta‘lim-tarbiya toptirish jarayonida boshlang‘ich ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich ta‘lim tizimida ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonamizda o‘quvchilarni yangiliklar, g‘aroyibotlar, ilg‘or xalqaro tajribalar qiziqtiradi. Zamon bilan birgalikda o‘quvchi yoshlarning ongi, fikrlash tezligi ortib bormoqda. Ayni damda yoshlarni tarqatma materiallar emas, kompyuterda bajariladigan, animatsiyalarga boy mashg‘ulotlar ko‘proq qiziqtiradi. Zamon zayli degandek, ayni vaqtida boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu sababdan ko‘p jihatlarni o‘zida ifodalovchi "Multimediali darslar", "Taqdimotlar asosida o‘tiladigan darslar" va " Seminar dars"laridan foydalanish tavsiya etiladi. Seminar dars o‘quvchilarni dars davomida faol qatnashishlariga, o‘zлari ustida ishlashga va dars davomida bahsmunozaralar bilan o‘tishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-asrning boshlarida kirib keldi. Ko‘pgina mutaxasislar bu atamani turli xil izohlamoqdalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimedialiga shunday ta’rif berish mumkin: multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an’anaviy va orginal turlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchiga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir. Multimedia tushunchalari juda xilma-xil bo‘lib, ko‘pincha har qanday vaqtida mavjud bo‘lgan texnologiyaga bog‘liq. Multimedia so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: multimedia-[ing. media, medium- o‘rtta, markaz, vositalar, tadbirlar] axborot



uzatishning xilma-xil vositalari (matn, ovoz, jonlantirilgan va grafik tasvirlar) ni qamrab oluvchi texnologiya va shunday texnologiyadan foydalanuvchi dasturlar va kompyuter vositalari.

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini qiziqarli, asosiy va zarur foydali bilimlarga boy jarayon sifatida o'tish ishlari sezilarli darajada e'tiborni torta oldi. Bu sinflarda multimedia vositalarining o'rni va foydasini ko'rib chiqish juda muhimdir. Quyidagi misollar orqali multimedia vositalarining sindarslaridagi o'rni haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish mumkin:

1. Audio va videodarsliklar: Ushbu darsliklar ma'lumotlarni ko'rish va ko'rsatish masalalari, ularni idrok etish va analiz-sintez qiladigan, ilg'orlashishga undovchi, maqsadli va aniq jarayonlarni yodda tutish uchun ham yordam beradi.

2. Interaktiv darsliklar: ular interaktiv materiallar va mashqlarning asosiy qatlami bo'lib, har tomonlama ilg'orlashishga, ularni qo'llash orqali o'quvchilar bilan o'zaro savol-javoblar doirasida turli interaktiv metodlar orqali mantiqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

3. Saytlar: Saytlar, mavzu va fanlar bilan bog'liq turli ko'rinishlar va formatlarga ega bo'lib, bir va ko'p mavzularda ko'proq bilim olish, amalda qo'llash va ko'nikmalar yaratish imkoniyatini tuhfa etadi.

4. O'yinlar: O'yinlar fikrlararo almashinish va ko'rishni, shaxsiy qarashlarga ega bo'lishni, miya faoliyatini yaxshilashni amalga oshirishda juda muhim hisoblanadi.

Har qanday multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflardagi o'quvchi zavqlari, o'quvchilar ko'nikmalarida yaratilgan odatlar va sinfning maqsadi asosida tanlangan vaqtarda ishlatiladi. Xuddi shu tarzda, o'quvchilarni ko'proq qiziqishlariga yoki talablarga rioya etishlariga, sinflarda ko'tarilish va sinfdan chiqarilishidagi yondashuvlarida muammolarga duch kelmaslikka olib keladi. Bundan tashqari, pedagog dars o'tish jarayonida ko'plab jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

- o'quvchilarning hammasiga bir xil muomalada bo'lish; -dars materiallarini tayyorlayotgan vaqtida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi;
- ularning shaxsini hurmat qilishi;

- o'tilayotgan mavzuni tushuntirishda faqat ilmiylikka emas hayotiylikka ham e'tibor qaratishi lozim.

- o'quvchi ham, avvalo. o'ziga o'xshagan inson ekanligini hisobga olishi kerak.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoni bor;



- Ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

- Ta’lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

- O‘qituvchi sinfda bo‘lishi shart emas;

- Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniga erishiladi. Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutishi mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish(video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30% oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi. Multimedia vositalari yordamida axborotlarni matnli, tasvirli, tovushli va animatsiyali ko‘rinishda namoyish etish mumkin. Multimediali axborot resurslari animatsiyali, audio va video ma’lumotlardan tarkib topadi.

Boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish juda samarali bo‘lib, ma’lumotga qiziqishni oshiradi va o‘quvchilarning o‘qishini sezilarli darajada mohiyatlari va qiziqarli qiladi. Multimedia vositalari o‘qituvchilarning o‘quv uslubini har tomonlama zamonaviylashtirishda badiiy aniqlash va turli pedagogik mashqlarga ishonch yaratish uchun ham yordam beradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnologiyaning rivojlanishi o‘quv ta’lim jarayoniga innovatsiyalar olib keldi va multimediali o‘quv muhitini rivojlanishiga zamin yaratdi. Multimedia texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanish ta’lim sifatini hamda ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Multimedia vositalari boshlang‘ich sinflarni yetakchi turdagilari konsepsiylar va tushunchalar bilan tutishga mumkinligini beradi, bu esa o‘quvchilarning ishonchini oshiradi. Jumladan, boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilar va o‘qituvchilar foydalanishiga qaramay, o‘quv jarayonlarini yuqori natijalarga yetaklaydi va o‘quvchilarni ushbu yosh davrasida mamlakatimiz mustaqillik yillar davomida o‘rnatilgan murakkab talablari sifatida tadbiq etiladi. Multimedia vositalaridan foydalanish orqali boshlang‘ich sinflarning darsini tashkil etish orqali o‘quvchilarning ma’lumot va axborotlarni qabul qilish sifati va tezligini samarali tarzda oshirish mumkin. Shunday ekan, O’zbekiston kelajagi yoshlari qo’lidadir...



**Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Azizxodjayeva N.N Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.:Fan,2006.
2. M.Aripov, M.Fayzieva, S.Dottoev. Web-texnologiyalar. T.: “Fayla- suflar jamiyati”, 2013 y.
- 3.[https://www.researchgate.net/publication/364187570\\_Strategies\\_of\\_Using\\_Multimedia\\_Technology\\_to\\_Optimize\\_Music\\_Classroom\\_Teaching\\_in\\_Primary\\_and\\_Secondary\\_Schools](https://www.researchgate.net/publication/364187570_Strategies_of_Using_Multimedia_Technology_to_Optimize_Music_Classroom_Teaching_in_Primary_and_Secondary_Schools) 1330
4. "How to Use Multimedia Effectively in Your Classroom?"  
<https://learnlaughspeak.com/how-to-use-multimedia-effectively-in-your-classroom/>
5. M.Aripov, M.Muhammadiev. Informatika, informatsion texnologiyalar. T.: TDYuI, 2005 y.
6. Joel Kilty. Mathematical Modeling and Applied Calculus. Oxford University Press (November 20, 2018) 816 pages.
7. Nurmatov, Z. O., Tursunpulatova, K. A., & Nasriddinova, Z. N. (2023, May). THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. In International Conference on Science, Engineering & Technology (Vol. 1, No. 1, pp. 99-103).